

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

Oriental Journal of History, Politics and Law
Шарқ тарихи, юриспруденция жана ғылыми журналы
HISTORY
ISSN 2191-270X
Oriental Journal of History, Politics and Law
2022 VOLUME - 2
DOI:10.37547/supsci-ojhpl

REFLECTION OF URBAN ENVIRONMENT IN SOCIO-CULTURAL PROCESSES

Sayfiddin M. Anarkulov

Acting associate professor, PhD

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan*

E-mail: nsg_i_zr85@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: urban environment, life cycle, mentality, microenvironment, urban culture, secondary territories, collective communication.

Received: 06.07.24

Accepted: 08.07.24

Published: 10.07.24

Abstract: This article contains reflections on changes in the culture of the people in connection with the urban environment, as well as on the factors influencing the formation of a unique worldview. The role of social engineering in urban planning is analyzed based on the theoretical views of some scholars.

SHAHAR MUHITINING IJTIMOIY-MADANIY JARAYONLARDA AKS ETISHI

Sayfiddin M. Anarkulov

Dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

E-mail: nsg_i_zr85@mail.ru

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: shahar muhiti, hayot sikli, mentalitet, mikro muhit, shahar madaniyati, ikkilamchi hududlar, jamoaviy muloqot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada shahar muhiti bilan bog'liq holda kishilarning madaniyatida ro'y beradigan o'zgarishlar, o'ziga xos dunyoqarashning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar xususida mulohazalar o'rinni olgan. Shaharsozlikda ijtimoiy muhandislikning roli ayrim olimlarning nazariy qarashlari asosida tahlil qilingan.

ОТРАЖЕНИЕ ГОРОДСКОЙ СРЕДЫ В СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ

Сайфиддин М. Анаркулов

Исполняющий обязанности доцента, PhD

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан*

E-mail: nsg_i_zr85@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: городская среда, жизненный цикл, менталитет, микросреда, городская культура, вторичные территории, коллективное общение.

Аннотация: В данной статье содержатся размышления об изменениях в культуре жителей в связи с городской средой, а также о факторах, влияющих на формирование уникального мировоззрения. Роль социальной инженерии в городском планировании анализируется на основе теоретических взглядов некоторых ученых.

KIRISH

Shahar muhiti – bu ma'lum tabiiy birlikning ajralmas qismi bo'lib, qulay hayot chizig'ini barpo qilishning, asosan, texnogen yechimi o'larоq yaratilgan, o'ziga xos urbanizatsiyalashgan hodisani anglatadi. Odatda, shahar muhiti yoki uning chegaralari deyilganda, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan boshqa hududlardan ajralib turgan makon tushuniladi.

Shahardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, undagi muhit kishilar madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda madaniy muammolarning qarama-qarshiligi va jiddiyligi aniq, ammo ularni hal qilish yo'llari baxsli bo'lib qolmoqda [Чижиков, 1999, с. 65]. Shulardan, urbanizatsiyalashuv bilan bog'liq madaniyatdagi ulkan yutuqlar, madaniyat uylari, mакtablar, kutubxonalar va boshqa shunga oid muassasalarining qurilishi haqida g'oyalar ancha ommalashgan. Olimlar va amaliyotchilar chuqur ijtimoiy-madaniy jarayonlarni, madaniyatdagi barqaror shakllanishlarni chuqur tahlil qilish zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqdalar. Chunki madaniyat, shahar muhitida odamlarning o'zaro munosabatlari jarayonlari, umuman jamiyatdagi shaxslararo muloqotning asosiy muammolarini eng aniq ko'rsatib beradigan omil hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Shahar muhiti haqidagi nazariyalar:

- qiyosiy tahlil (shahar muhiti va qishloq joylar, ko'p qavatli uylar va hovlili mahalla yashovchilarining ruhiyatidagi, madaniyatidagi o'ziga xosliklar qiyosiy tahlil qilingan);
- davriylik (zamonaviy shaharlarning barpo etilishi, shaharsozlikdagi yangilanishlarning ijtimoiy ta'siridagi o'zgarishlar xronologiyasi tasniflangan);
- obyektivlik (kishilarda turar-joy bilan bog'liq shakllanadigan o'ziga xosliklar bevosita kuzatuvlар va so'rovlar asosida olingan ma'lumotlar asosida yoritilgan) kabi nazariyalardan foydalanildi.

Shaxslararo muloqot va shahardagi odamlar o'rtasidagi muloqot o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shahar avtonom birlik bo'lib, butun ijtimoiy tizimning bir qismi, shunindek, mehnat, oila va boshqa ijtimoiy guruhlар tizimidir. Ma'lumki, shaharning faoliyati va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Har qanday jamiyatda insonning hayot sikli tegishli madaniy an'analar bilan belgilanadi. Shunga asoslanib, insonning yashash shakli madaniyatdagi shaxsning rivojlanishini ifodalaydi yoki boshqacha qilib aytganda, madaniyat shaxsiyatga aylanadi. Ya'ni, shaharlarda kishilarning bir-biriga nisbatan befarq munosabatini shakllanadi [Anarkulov, 2021, b. 47]. Bundan xulosa chiqadiki, hovli-joyli mahallalardagi kishilarning o'zaro faol muloqoti o'rnida, ko'p qavatli uylar aholi manzilgohlarida ko'chalar bo'ylab tez va bir-birlariga be'tibor harakatlanayotgan odamlar manzarasi paydo bo'ladi. Misol tariqasida ko'rildigan bo'lsa, *Tashkent city*dagi ko'p qavatli uyda yashovchilar ilgari "O'qchi" mahallasida bo'lganidek, jamoa bo'lib turli marakalarda ishtirok etmaydilar, xatto, bir-birlarini tanimaydilar. Zero, hovlilar birlamchi hujayra sifatida baholanib, ("sizning hovlingiz", "sizning ko'changiz", "sizning blokingiz") va aloqa shakllari o'rtasida yaqin o'zaro bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Hovli madaniyati shahar hayotining yacheykasi sifatida shahar madaniyatining chuqur an'analariga borib taqaladi va bugungi kunda "hovli"lar binolar orasidagi joy sifatida emas, balki shaxsning muayyan birlamchi ijtimoiy mikro muhiti sifatida tushuniladi. "Bir hovlining yigitlari" turli xil ijtimoiy-madaniy yo'nalishlar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradigan psixologik, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy uyg'unlikni boshdan kechirdi. Bu yerda birinchi muloqot qobiliyatları, "xavfsizlik" hissi va inson muhitiga qo'shilish shakllanadi. Hovli – bu avloddan-avlodga o'tib kelayotgan og'zaki tarix, xulq-atvor qoidalari [Матяш, 1990, C. 147].

Shu o'rinda hovli va ko'p qavatli aholi manzilgohlari o'rtasidagi farqli jihatlarning sababini aniqlash, bir muncha murakkab savollarni keltirib chiqaradi. Masalan, nima uchun katta shahar befarq, passiv xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi? Bunda shahardagi inson xatti-harakati g'oyasi shahar stressi kontseptsiyasiga asoslanishini ko'rish mumkin. Ya'ni, ko'p qavatli uylarda yashovchilarda katta shahar atrof-muhitidagi tez o'zgarishlarga, "notanish kishilarning" yuzaki muloqotiga munosib javob bera oladigan, ishonchli ko'nikmalar shu yo'l bilan shakllanadi. Shahardagi mahalla (hovli) hayoti esa Zimmel ta'kidlagan "nisbatan qishloqning tinchroq ritmiga" moslashadi. Boshqa tomondan qaraladigan bo'lsa, mahalla, uy-joy o'zbek xalqi mentalitetiga ko'ra an'analar, avlodlar davomiyligini saqlovchi institut hisoblanadi. Uzoq o'tgan davr maboynda birgalikda yashab kelgan mahalladoshlarning avlodlari orasida ham faol muloqotning saqlanib qolishi, balki, ko'p qavatli turar-joylardagi kabi "begonalashuv" ga yo'l qo'yaydi.

Ijtimoiy soha vakillari orasida odamlarning o'zi madaniyat yaratadi va shu bilan birga madaniyat odamlarni yaratadi degan qarash bor. Ya'ni, inson va madaniyat o'zaro bog'liq ikkita hodisadir. Inson o'zi shakllantirgan madaniyatda yashaydi [Токарева, 2011]. Shu bilan birga, hech bir madaniyat o'zining sifat darajasi bo'yicha inson salohiyatidan oshib keta olmaydi. Demak, har bir madaniyatning o'lchovi shaxsning erkin rivojlanishi uchun yaratadigan imkoniyatlardir. Shuning uchun ham har qanday jamiyatda yashayotgan kishida ijtimoiylashuv ro'y beradi. Bu esa

uning dunyoqarashida aks etadi. Odatda, o‘zbeklar orasida mazkur jarayon “o‘zgaribdi” so‘zi bilan ifodalanadi. Ko‘pincha bu so‘zning fonida “shaharlik bo‘lib ketibdi”, “o‘zining an’analarini unutibdi” kabi iboralar nazarda tutiladi. Bu kabi jarayonlar ma’lum ekvivalent doirasini yaratadigan inson mavjudligi, uning ma’lum doimiy qadriyatlarga egaligi haqidagi fikrga olib keladi. Jon Dollard qanday jamiyatda yashayotgani, qaysi madaniyat egasi ekanligiga qarab, kishilarning keljakda qanday kiyim kiyishi, qaysi tilda gaplashishi, diniy g‘oyalari, tipik faoliyati haqida taxmin qilish mumkinligini ta’kidlagan [Чижиков, 1999, с. 69].

Atrof-muhitning xilma-xilligi, ko‘p qirraliligi va g‘ayrioddiy farqlanishlar tufayli zamonaviy shahar aholisi, ko‘plab ijtimoiy guruhlar va jamoalarga tegishli. O‘z navbatida ular me’yorlari, qadriyatlari va xatti-harakatlari juda xilma-xil bo‘lgan mehnat jamoasi, oilaviy, norasmiy va rasmiy birlashmalar, ijodiy havaskorlik jamoalari, milliy, diniy hamda kasbiy guruhlarning a’zosi hisoblanadi. O‘sha jamoalarning har birida inson o‘zini ma’lum bir tarzda identifikasiya qiladi.

Shaxs shahar hayoti sharoitlariga chuqr ijtimoiy moslashgan bo‘lsa-da, madaniy mansublik hamda ichki “men”i ularni butunlay singib ketishiga to‘sinqlik qiladi, natijada ayrim masalalarda izolyatsiyaga olib keladi, bu esa kishilarning ichki ozodliigiga to‘sinqlik qiladi. Bu shahar stressini keltirib chiqaradi. Oqibatda, kishilarda marginallik, muayyan jamoa yoki guruhga nisbatan shaxsiy pozitsiyani faol izlash zarurati, jumladan, kiyim-kechak, nutq uslubi, so‘z boyligi hamda xulq-atrori kabi tashqi ijtimoiy-madaniy belgilar paydo bo‘ladi. Shahar muhitiga xos stresslarni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida shovqin, ifloslanish, chang, ortiqcha yorug‘lik va boshqalarni keltirish mumkin. Shuningdek, ko‘p qavatli turar-joy foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar ham turli stressli holatlarni keltirib chiqaradi. Birgina avtomobilarni parkovka qilish bo‘yicha avvaldan shu uyda yashayotganlar va yangi ko‘chib kelganlar, avtomobili bor hamda yangi avtomobil sotib olganlar o‘rtasida o‘zaro “raqobati”ga bugun tez-tez guvoh bo‘lish mumkin. Bu esa ko‘p qavatli uylar hovlisining “norasmiy egalari” toifasining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Ko‘p qavatli uylarda odamlarning haddan tashqari zichligi turli patologiyalarning rivojlanishiga olib keladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, shaxslararo muloqot eng muhim insoniy qadriyatlardan biridir. Chunki, muloqotda odamlar umumiy dunyoqarash tizimini rivojlantiradi, inson o‘z mavjudligining ma’nosini tushunadi va o‘zini shaxs sifatida namoyon qiladi. Shaxslararo aloqalar va odamlar o‘rtasidagi muloqot shahar jamoasi va butun jamiyat mavjudligining sharti, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda uning ko‘p qirrali rivojlanishini namoyish qilish usulidir. Tabiiyki, inson odamlar orasida bo‘lib, ular bilan muloqot qilmasligi normal holat hisoblanmaydi.

Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj nafaqat ijtimoiy, balki inson hayotining biologik shartliligidir. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj boshqa barcha ehtiyojlarning, shu jumladan moddiy va ma’naviy ehtiyojlarning past darajada amalga oshirilishiga ta’sir qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, insonning

shaxslararo muloqoti, uning jamiyatdagi muloqoti inson mavjudligining hayotiy ijtimoiy shartlaridan biridir. Shu sababli, shahar hayoti sharoitida, ijtimoiy jihatdan aniqlangan guruhlarning xilma-xilligiga, ulardagи xatti-harakatlarning universal shakllari, usullari va me'yorlarining yo'qligiga qaramay, shaxs ijtimoiy hayotning murakkab tizimida maksimal moslashish, tez o'tish imkoniyatlarini topadi.

Bunday sharoitda shaxs, go'yo rolli xulq-atvorga ega bo'ladi. Chunki shahar odamlari jamiyati, qishloqdan farqli o'laroq, juda xilma-xil bo'lib, ko'plab alohida ijtimoiy jamoalardan tashkil topgan. Shahar muhitida rasmiy va norasmiy munosabatlar sezilarli darajada namoyon bo'ladi. "Odatda qishloqda odamlarning ish va dam olish joylari bir xil bo'lsa, shaharda esa bir nechta mikro muhitlar mavjud. Bu mikro muhitlar o'rtasidagi bog'liqlik kuchli emas. Undagi yagona bog'lovchi bo'g'in, aksariyat hollarda odamning o'zi" [Файзуллин, 1981, С. 176]. Shuning uchun, shahar va qishloq madaniyati o'rtasidagi o'zaro ta'sir toifalarini aniqlashda shaxslararo aloqalarni tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Shaxslar, ijtimoiy guruhlar va millatlar shunday aloqalarga ega. Ushbu ierarxiyada shaxslararo muloqot alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, u bajaradigan funktsiyalari bilan belgilanadi:

- *axborot va aloqa* (muloqot jarayonida axborot almashinushi);
- *tartibga soluvchi-kommunikativ* (muloqotda qoidalar, maqsadlar, vositalar, xatti-harakatlar motivlari ishlab chiqiladi, uning normalari o'r ganiladi, harakatlar baholanadi);
- *samarali muloqot* (muloqot hissiy taranglik darajasini tartibga soladi).

Shaharda shaxsiy muloqot shakllari ham kam sonli aholi punktlariga qaraganda ancha xilma-xildir. Jumladan, ishbilarmonlik (hamkasblar o'rtasidagi ish jarayonida muloqot); funktsional-rolli (shifokor va bemor, sartarosh va mijoz, sotuvchi va xaridor); intim-oilaviy (do'stlar, yaqinlar, oila a'zolari o'rtasidagi muloqot); norasmiy (tashrif, sayr qilish, baliq ovlash, ovqatlanish va boshqalar); anonim (tasodifiy, notanish odamlar – haydovechi va yo'lovchi o'rtasidagi muloqot) kabilarni ko'rish mumkin. So'nggi yillarda ko'plab sotsiologlar shahar kishilari muloqotini baholashda shahar aholisining holatini "begonalik" va "yolg'izlik" kabi baholashlardan tobora ko'proq foydalanmoqdalar. Zamonaviy shahar muhiti va tezlashtirilgan hayot tarzi barqaror va uzoq muddatli shaxsiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlamaydi. Bu borada A.Toffler shunday yozadi: "Superindustrializmga yaqinlashgan sari odamlarning bir-biri bilan munosabatlari vaqtinchalik, doimiy xarakter kasb etadi, odamlar ham xuddi narsa va joylar kabi bizning hayotimizdan to'xtovsiz, tez sur'atlar bilan o'tadi, biz atrofimizdagi odamlar bilan yuzaki, ishbilarmon munosabatlarga kirishamiz, biz ko'pchilik bilan munosabatlarimizni funktsional asosda quramiz" [Toffler 1983, P. 23].

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning shaharlari aholisida yolg'izlanishning kuchayishi kuzatilmogda. Odatda, keksa yoshdagи kishilarda uchraydigan bu holatning tobora yosharib

borayotganligi yaponiyalik mutaxassislat tomonidan xavotir bilan qayd qilingan. Shuning uchun yirik shaharlarda yolg‘izlarni ro‘yxatga olish hamda ularning holatidan muntazam xabardor bo‘lib turish uchun maxsus guruhlar tashkil etilgan.

I.S. Konning ta’kidlashicha, ko‘p sonli shaxslararo aloqalar shahar aholisining shaxsiy makonini xususiyashtirishga bo‘lgan ehtiyojini oshiradi. U o‘zi va boshqalar o‘rtasida masofani o‘rnatishning turli shakllarida ifodalanadi. Jamoat joylarida (transport, oshxona, kutubxona o‘qish zali) joy tanlashda biz, qoida tariqasida, qo‘shti joylarni egallamaslikni afzal ko‘radi. Maishiy sohada alohida xonadonga, alohida xonaga bo‘lgan ehtiyoj – o‘zini izolyatsiya qilishning odatiy istagi. Bu normal holat bo‘lib, makonni xususiyashtirish zarurati (shaxsiy jismoniy va psixologik) shaxslararo aloqalarning zichligi va intensivligi tufayli shahar aholisi boshdan kechiradigan ortiqcha yuklarni yengillashtirishga xizmat qiladi [Конн, 1987, С. 122].

Shahar muhiti qanchalik shaxssiz bo‘lsa, shaxslararo muloqotning individualligi shunchalik yorqinroq namoyon bo‘ladi. Bunda anonim, tasodify va qisqa muddatli aloqalar ulushi ortib boradi. Natijada funksional aloqaning aniq ifodalangan tendentsiyasi bilan bir qatorda, “dialogik” muloqotni “monologik” bilan almashadiradigan, shaxsni tinglovchiga, tomoshabinga aylantiradigan aloqa shakli paydo bo‘ldi. Bu esa “... shaxsiy aloqalari bo‘lmagan odamlarning soni va roli ortib borishiga, ... “men” – “siz” munosabatlarining shaxsiy hayotiy tajribasining ahamiyati pasayib ketishiga olib keladi. Uning o‘rnida “men” – “ular” munosabatlari kuchayadi, anonimlik darajasi oshadi [Вихалем, 1981, С. 74].

Shahardagi aloqa, bizning fikrimizcha, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita xususiyat bilan tavsiflanadi. Aholi zichligining oshishi odamlar o‘rtasidagi aloqalarning kuchayishiga olib keladi va shu bilan birga shahar aholisi o‘rtasidagi munosabatlarning murakkablashishiga yordam beradi. Ijtimoiy foydali aloqalar bilan bir qatorda boshqa istalmagan, ziddiyatli aloqalar, jumladan, antisotsial qarashlar va his-tuyg‘ularning tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan aloqalar ehtimoli ham ortadi. Bu haqida yuqorida parkovka misolida to‘xtalingan edi.

Shahar mavjudligining anonimligi o‘ziga xos xulq-atvor normasi bo‘lib, uning buzilishi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shahardagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning anonim, shaxsiy bo‘lmagan, funksional tabiat, transport, savdo korxonalari va umumiyoq ovqatlanish korxonalarida notanish odamlar bilan aloqalarning ko‘pligi shahar aholisini shaxsga unchalik qiziqtirmasligiga olib keladi. Masalan, sotuvchi, politsiyachi, ofitsiant, haydovchi va boshqalar bilan aloqada bo‘lgan shahar aholisi unda faqat u yoki bu ijtimoiy funksiyaning tashuvchisini ko‘radi. Bu odamlarning xulq-atvorini ijtimoiy nazarat qilish shakllarining samaradorligini pasaytiradi. Biroq, anonimlik ijtimoiy nazaratning samaradorligini butunlay inkor etmaydi, balki boshqa xattiharakatlar uslublariga nisbatan bag‘rikenglikni oshiradigan me’yorga qat’iy rioya qiladi.

Qishloq muhitining barqarorligi qo'shnichilik va oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ushbu tizimning nisbatan barqarorligi va izolyatsiyasini belgilaydi. Shu bilan birga, shahar aholisining zichligi, aloqaning anonimligi va shahar aholisining kasbiy, dam olish va boshqa muloqot muhitining hududiy tarqoqligi ijtimoiy nazoratni zaiflashtiradi. Amerikalik arxitektor Nyumanning ta'kidlashicha, jinoyatchilikning yuqori darajasi va ko'p qavatlari binolar o'rtaida geografik jihatdan aniq bog'liqlik mayjud. Uning ta'kidlashicha, jinoyatchilikning yuqori darajasi bunday binolarning fazoviy tashkil etilishining o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq. Ya'ni ularning joylashuvi odamlarni o'z uylariga tutash hududlarga egalik qilish uchun asoslardan mahrum qiladi. Agar hovli joylarda yashovchilar qo'shnilaridan va ko'chadan yer uchastkasi bilan ajratilgan yopiq maydonga egalik qiladi. Ya'ni uning uy-joydan tashqari bo'lgan hududga egalik qilishi orqali ko'chaga, mahallaga daxldorligini kuchayib boradi. Aksincha, ko'p qavatlari binolarda ko'pchilik oilalar ... o'z xonadonlari tashqarisidagi bo'sh joyni faqat jamoat deb hisoblaydilar, natijada ular o'z uylarining eshiklari tashqarisida sodir bo'lgan har qanday hodisalar uchun barcha javobgarlikni boshqa "mas'ullar"ga o'tkazadilar. Binolar ichida va darhol uning atrofida ulkan maydonlarni egallagan bo'shliqlar "ikkilamchi hududlar" hisoblanadi. Unga kirish hamma uchun ochiq, lekin nazorat qilish har qanday jismoniy shaxs uchun majburiy emas. Natijada kvartiradan ko'rinxaydi bunday yarim jamoat mulki bo'lgan zinapoyalar, lift kabinalari, chodirlar, koridorlar jinoyatlar juda sodir bo'ladigan joylarga aylanadi.

Shahar aglomeratsiyasi ijtimoiy-madaniy tuzilma sifatida xilma-xil ijtimoiy institutlar – muassasalar va tashkilotlar, turli qadriyatlarga ega bo'lgan, turli axborot oqimlarida harakatlanadigan fuqarolarning madaniy guruhlarini tashkil qiladi. Bunda o'rganuvchi qator muammoli vaziyatlarga duch kelishi tayin. Gap ma'naviy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari va tengligini ta'minlashda emas, balki aholining turli guruhlari hamda alohida shaxslarning ularga nisbatan tanlash munosabatidadir. Aholining ijtimoiy-madaniy qatlamlari xilma-xillik bilan to'la: ta'lim va kasbiy, ijtimoiy guruhlarning xilma-xilligi, avlodlararo tafovutlar, turar jooning madaniyat markazlaridan uzoqlik darajasi, bo'sh vaqt miqdori, madaniy ehtiyojlardagi farqlar. Madaniy ehtiyojlearning mavjudligi biz uchun ayniqsa qiziq. Ijtimoiy-madaniy geterogenlik insonning shaxsiy imtiyozlari, madaniy sohadagi ehtiyojlari, xulq-atvor stereotiplari va boshqalarga ta'sir qiluvchi mikromuhit, insonning bevosita muhiti ta'siri bilan belgilanadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, elektronika, kibernetika, informatika, sun'iy yo'ldosh aloqasi sohasidagi so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida erishilgan so'nggi kashfiyotlar shaharni jamiyatdagi ijtimoiy va axborot jarayonlari markaziga aylantirdi. Insoniy muloqotning mohiyati keskin o'zgardi. Muloqot ommaviy xususiyatga ega bo'lib, shaxsiy ishtirokga asoslangan bevosita muloqotni bilvosita muloqotga o'tkazadi. Mutlaqo tasodifiy, o'z-o'zidan, oldindan aytib

bo‘lmaydigan odamlarning mexanik birlashmasidan iborat bo‘lgan shahar aholisi aloqaning mutlaqo yangi predmetiga aylandi. Ushbu mavzu va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi munosabatlar anonim va manzilsiz bo‘lib qoldi. Shahar madaniyatida faoliyat yuritayotgan zamonaviy axborot maydoni juda kuchli ommaviy kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlandi. Shahar aholisining hayotiga hamroh bo‘lgan shahar ommaviy axborot vositalarining juda boy vizual foni shaxsning ijtimoiy-madaniy yo‘nalishi vazifasini bajaradi.

O‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab madaniy shahar muhitining murakkab ko‘p qutbli konglomeratida insonning ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlarini ilmiy tahlil qilish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunda shahar aholisining madaniyat va madaniy qadriyatlarning tashuvchisi va iste’molchisi ekanligiga alohida e’tibor qaratilgan. Shahar aholisi o‘rtasida o‘tkazgan sotsiologik so‘rovlар kishilarining maqsadlari, qiziqishlari va yo‘nalishlari, ularning fikr-mulohazalari, shahar madaniyati holatiga baholarini o‘rganishdan iborat edi. Uning natijalariga ko‘ra, shaxsning ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlari mobil, o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, bu ularga o‘zgartirishlar kiritish hamda ularni uzoq muddatda tartibga solish imkonini berishi qayd qilindi. Buni kishilarning yoshdagи o‘zgarishlar bilan ham bog‘lash mumkin. Bu borada rossiyalik tadqiqotchilarning olgan natijalariga ko‘ra respondentlarning barcha yosh toifalari orasida eng katta qiziqish havaskor badiiy kontsertlar va professional san’atkorlarning kontsertlariga, 25 yoshgacha bo‘lgan o‘smyrlar va yoshlarda yoshlari kechalari, ko‘ngilochar kechalar, diskotekalarga, 30-50 yoshdagи fuqarolarni shahar rahbarlari, turli shahar xizmatlari rahbarlari bilan uchrashuvlar, kalendar va an’anaviy xalq bayramlari o‘ziga jalg qilinishi kuzatilgan. Shuning uchun ham tadqiqotchilar agar tadbir mavzusi va uning mazmuni muayyan yosh toifalaridagi odamlarning ma’lum ehtiyojlari va so‘rovlарiga mos kelsa, bu muvaffaqiyatli bo‘lishini qayd qilganlar.

Yashash joyidagi odamlar jamoasi – bu odamlarning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy guruh bo‘lib, uning muammolari ma’lum tarkibning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy aloqalarning tabiatiga egadirlar. Har bir ijtimoiy-madaniy guruh, uning ichki munosabatlar muhiti, shuningdek, shaharning hovlilari, xiyobonlari individual va o‘ziga xosdir.

Bugungi kundagi shaharlarni obodonlashtirish, markaziy hududlarni, eski mahallalarni rekonstruksiya qilish, yangi mikrorayonlarni barpo etish muhim ijtimoiy-madaniy muammolarni hal qilmoqda – fuqarolarni shinam yangi uy-joy bilan ta’minlamoqda. Ammo, shu bilan birga, shahar aholisi uchun o‘z hovlisini yo‘qotish mikromuhitning bir qismini va uning atrof-muhit, odamlar va aloqa shakllari bilan birlamchi aloqalar shakllanadigan qismini yo‘qotishni anglatadi. Yangi binolarning hududlari, katta turar-joy maydonlari, ulkan uylar, qoida tariqasida, o‘z kvartirangiz ostonasida tugaydigan butunlay boshqa dunyoni ifodalaydi.

Jamoaviy aloqalarni rivojlantirishda jamoatchilik nazoratini mahalliy “mikrotuman” shahar tashkilotlariga o’tkazishga urinish zamonaviy shaharning tabiatiga va urbanizatsiyaning asosiy jarayonlariga zid keladi. Bu tendentsiyalar aslida shahar markazlari, yirik ixtisoslashtirilgan madaniyat muassasalari, ta’lim va hokazolarning o’ziga xos ahamiyatini oshirishni taqozo qiladi. Urbanizatsiya bugungi kunda shunday nisbatlarga ega bo’ldiki, uy-joy qurilishi, ishlab chiqarish obyektlari, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi mohiyatan yangi shaharlarni paydo qildi.

Yangi zamonaviy texnologiyalarga o’tish – shaharlarni barpo etishdagi barcha muammolarni hal qiladi degan tamoyil unchalik ham to‘g’ri fikr emas. Imkon qadar mazkur jarayonda arxitektor yoki iqtisodchilardan tashqari turli soha mutaxassislari, madaniyatshunos, antropolog, sotsiolog olimlarning bu boradagi mulohazalarini inobatga olish, madaniyatda hamma narsa o‘zaro bog‘liqligi hamda ta’sir qilishi xususidagi nazariyalar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. Sababi, sohalaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, arxitektorlar yoki tegishli mutasaddilari ijtimoiy rejalashtirishni hisobga olmaslikning ro‘y berishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini unchalik chuqur anglamaydilar. Bu borada o’tgan asrning so‘nggi choragida shaharlarni barpo qilishning xususiyatlari haqida gapirliganda bir qator tadqiqotchilar “ijtimoiy dizaynerlar”ning madaniy faoliyat sohasiga tez kirib kelayotganini ta’kidlagan edilar [Вихалем, 1981, C. 74.].

2024-yilning 19-iyunida Prezident matbuot xizmati O‘zbekistonning 38ta tuman markazlari va shaharlarida ko‘p qavatli uylar qurilishi haqida xabar berdi. [president.uz 19.06.2024]. Demak, bundan ko‘rinadiki, mamlakatda urbanizm faol davom etadi. Albatta, bu jarayonlar ijtimoiy va kommunikativ o‘zgarishlarsiz ro‘y bermaydi. Shu tufayli, shaharlashuv jarayonlarini antropologik tadqiq qilish, ya’ni mazkur holatda kishilarning turmush tarzida, ruhiyatida qanday o‘zgarishlar bo‘layotganligini o‘rganish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur tizimda xonodonlar, ayniqsa, yangi mikrorayonlardagi xonodonlarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Kvartira va hovli, kvartira va shaharning ijtimoiy-madaniy funktsiyalari o‘rtasida farqlar, ritm va psixologik muhit o‘zgardi. Aytish mumkinki, shahar aholisining ijtimoiy-madaniy yo‘nalishi doimiy rivojlanish hamda o‘zgarish dinamikasida. Ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlarning rivojlanish jarayoni madaniy faoliyat shakllarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Madaniy qadriyatlar va manfaatlarni ishlab chiqaruvchi va iste’mol qiluvchilar o‘rtasidagi muloqotning tabiatini o‘zgarmoqda.

Bundan ko‘rinadiki, jamoat ongi madaniyatning faqat milliy madaniyatning tarixan shakllangan obyektlari bilan bog‘liq bo‘lgan yuksak va uzoq hodisa emas, balki u insonning o‘ziga xos bo‘lgan, uni o‘rab turgan barcha borliqdan iborat. Shahar madaniyatini kamroq vositachilikni

talab qiladi, ko‘p funktsiyali va ijtimoiy o‘zgarishlarga ta’sirchan. Ammo uning asosiy kamchiligi shundaki, ular asosiy narsani – to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotning jozibadorligini istisno qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Чижиков В.М. Диалектика взаимодействия социокультурных систем города и села. Диссертация на соискание ученой степени доктора культурологии. – Москва, 1999. – 381 с.
2. Анаркулов С.М. Тошкент воҳаси саноат шаҳарларида ижтимоий-маданий жараёнлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2021. – 197 б.
3. Матяш С.В. Человек в городе: Социологические очерки. – Киев, 1990. С. 147.
4. Токарева Юлия Васильевна, «Человек культуры» и особенности его формирования на постсоветском пространстве // Вестник ЧитГУ №8 (75) 2011.
5. Файзуллин Ф.С. Социологические проблемы города. – Саратов, 1981. – С. 176.
6. Toffler A. Previews and Premises. – New-York, 1983. – P.23.
7. Кон И.С. Дружба. – Москва, 1987. – С. 122.
8. Вихалем П. Урбанизация, массовая коммуникация и жизненный мир личности // Город как среда жизнедеятельности человека. – Вильнюс, 1981. Ч. 2. – С. 74.
9. president.uz 19.06.2024